



BO'LAJAK PEDAGOGLARDA O'Z USTIDA ISHLASH JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLASHNING AXAMIYATI

Raximova Nodira

Andijon davlat universiteti

Ijtimoiy iqtisodiyot fakulteti

Umumiy psixologiya kafedrası o`qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7298301>

Anotatsiya:

Ushbu maqolada hozirda mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim tizimida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y berayotgani, ushbu o'zgarishlardan yangi pedagogik usullar va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, ham o'rtacha standart o'quv dasturlariga yo'naltirilgan ta'limdan o'zgaruvchan, rivojlanuvchi va sematik ta'limga o'tish bilan tavsiflanadi. Bu uchun o'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar, mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega ekanligi tog'risida fikr yuritiladi. Kalitso'zlar: Standart, texnologiya, mustaqil fikr, shaxs, jamiyat, kreativ, muloqot, hamkorlik, kitobxonlik, savodxonlik

Annotation: This article shows that positive changes are currently taking place in the education system of our independent Uzbekistan, the use of new pedagogical methods and teaching technologies, and education focused on average standard curricula. It is characterized by the transition to a changing, developing and semantic education. For this, the requirements for the teacher's personality and the ability to think independently are considered.

Keywords:

Standard, technology, independence, personality, community, creative, communication, collaboration, reading, literacy

Shaxs mustaqil fikrga ega bo'lgandagina jamiyatda ijtimoiy faol fuqaroga aylanadi va o'z sohasining mahoratli mutaxassisi sifatida millat ijtimoiy tafakkurining rivojiga o'z ta'sirini ko'rsata oladi. Shuning uchun maktabga ilk qadam qo'ygan bolani dastlabki o'qish kunlaridan boshlab mustaqil fikrlashga o'rgatib borish kerak. Umumiy o'rta ta'lim milliy o'quv dasturi metodologiyasining asosiy vazifalari sirasida "o'zining "men"ligi, intellektual salohiyati, ma'naviyati va dunyoqarashi ustida mustaqil ishlash hamda XXI asr ko'nikmalarini (madaniyatli muloqot, insoniy fazilat, kitobxonlik, savodxonlik, tanqidiy-kreativ fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash, muammolarga yechim topish kabi) o'quvchilarda shakllantirish" belgilab berildi. O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish borasida o'z tajribamdan kelib chiqib, quyidagilarni tavsiya etmoqchiman:





- O'qituvchi ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil etishi lozim, darsda mavzuga mos qo'shimcha mantiqiy topshiriqli didaktik materiallardan foydalanishi;
- Dars jarayonida turli muammoli vaziyatlar hosil qilib, o'quvchini mustaqil ishlashi orqali mantiqiy tafakkuri rivojlanib, mustaqil fikrlashga undashi;
- Darsda interfaol uslublardan foydalanib o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishi;
- o'quvchiga yodlashni emas, fikrlashni o'rgatish kerak.
- Masalan, o'qish fanidan she'rni faqat yodlagani uchun emas, balki, uni ifodali aytib, she'rdagi g'oyaning asl mohiyatni anglab yetishga undash kerak.
- Qo'llab-quvvatlaydigan sinf muhitini yaratish.
- o'quvchilarning mustaqil fikrlashi uchun sinfda raqobatbardosh emas, balki qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga harakat qilish lozim. Buning uchun kichik guruhlarda ishlash yaxshi samara beradi.
- o'quvchining najot istagiga qarshi turish .

Xozirda mustaqil O'zbekistonimizda ta'lim tizimida ham ijobiy o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu o'zgarishlardan yangi pedagogik usullar va o'qitish texnologiyalaridan foydalanish, ham o'rtacha standart o'quv dasturlariga yo'naltirilgan ta'limdan o'zgaruvchan, rivojlanuvchi va sematik ta'limga o'tish bilan tavsiflanadi. Xozirda nafaqat o'quvchi o'z mustaqil fikriga ega bo'lishi balki o'qituvchidaxam mustaqil fikrlashning yangicha tamoyillarini talab qiladi. O'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi ko'p qirrali va mashaqqatli jarayondir. O'qituvchi albatta o'z ustida ishlashi xamda ta'lim jarayonini to'g'ri tashkil eta olishi uchun o'z ustida ishlashi talab etiladi. O'qituvchidan talab qiladigan asosiy narsa bir tomondan, talaba o'rganilayotgan fanini yaxshi bilishi kerak bo'lsa, ikkinchi tomondan o'quvchi va pedagog o'rtasidagi contactning normada bo'lishini, nazoratini ushlab qolishini talab qiladi. O'qituvchi talaba bilan ishlash jarayoni qiyinligini hisobga olgan holda umumiy pedagogik bilim, ko'nikma xamda mustaqil fikrlay olish va uni o'tkazish usullariga ega bo'lishi kerak.

Hech shubha yo'qki, o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligi yakka holda emas, balki o'quvchilarning sinf va darsdan tashqari ishlarining murakkab tizimi sifatida tushuniladigan yaxlit ta'lim jarayonida amalga oshirilishi kerak. Bunda o'qituvchiga pedagogik qobiliyat xamda tafakkur talab etiladi.





Pedagogik tafakkur - o'qituvchi shaxsining asosiy, asosiy qobiliyatlari, sifatlaridan biri bo'lib, tafakkurning o'ziga xos kasbiy yo'nalishida ifodalanadi va pedagogik mahoratda namoyon bo'ladi. Kasbiy tafakkurni shakllantirish muammosi uzoq vaqtdan beri ilmiy qiziqish uyg'otib kelgan. Ammo uzoq vaqt davomida uning na fundamental postulatlarini, na aniq belgilangan tadqiqot predmeti, na metodologiyasi bor edi, bu esa uni amaliyotga tatbiq etishni qiyinlashtirdi, pedagogik jarayonni qiyinlashtirdi. Bo'lajak o'qituvchilarida ijodiy fikrlashni rivojlantirish bo'yicha maqsadli ishlar talabalarga ega bo'lishga yordam beradi. Pedagogik sohadagi bilim, ko'nikma va malakalar shaxsning ijodiy saviyasi va mustaqil ish tajribasini oshiradi. Lekin bu o'qituvchilarini tayyorlashda mazmun va uslubiy jihatlarni o'zgartirishni, fan va ishning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbiy tafakkurni shakllantirishni taqozo etadi. Kasbiy tafakkurni shakllantirishda o'qituvchi o'quvchilariga yangi, izlanishga undaydigan vazifalar berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. O'qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. - Toshkent: TDPU, 2000. - 52 b.
1. Андреева Г.М. Социальная психология. - М.: МГУ, 1988. - 415 с. 14. Ahlidinov R.Sh., Nosirova F.A., Rajabova M.R. Maktab boshqaruvida ichki nazorat. - Toshkent: Sharq, 1996. - 15-17-b.
3. Ahlidinov R.Sh. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). - Toshkent: O'zPFITI, 1997. - 25-26-b.
4. Ахдидинов Р.Ш. Социально-педагогические основы управления качеством общего среднего образования.: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - Ташкент, 2002. - 44 с. 17. Безрукова В.С. Педагогика. Проективная педагогика. - Екатеринбург: Деловая книга, 1996. - 344 с.
5. Березуцкая Ю.П. Подготовка организаторов образования к анализу управленческой деятельности на основе системы мотивационного программно-целевого управления.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Барнаул, 1999.- 18 с.
6. Гришина Е.А. Процесс формирования коммуникативных умений специалиста-менеджера.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Волгоград, 1999. - 21 с. 108 23. Гузеев В.В. Образовательная технология: от приема до философии. - М.: Наука, 1996. - 112 с.
7. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. - Toshkent: O'qituvchi, 1999. - 29 b. 25. Давыденко Т.М. Теоретические основы рефлексивного управления школой.: Автореф. дис. ... д-ра пед. наук. - М., 1996. - 35 с. 26. Dexkanova M.U. Kasb-hunar ta'limi rahbar xodimlarining



malakasini oshirish jarayoniga tizimli yondashuv.: Ped. f.n. ... diss. avtoref. - Toshkent, 2005. -b.

8. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini boshqarishda menejmentning asosiy tushunchalari. - Toshkent: Fan, 2006. - 50 b.

9. Djurayev R.X., Turg'unov S.T. Ta'lim menejmenti: O'quv qo'llanma. - Toshkent: Voris, 2006. - 264 b.

10. . Kornilov N., Begmatov A., Quronov M. Rahbar va xodim. - Toshkent: Akademiya, 1998. - 170 b.

11. Karimova M.O. Kasb-hunar kollejlari uslubiy ishiami tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslari.: Ped. f.n.... diss. avtoref. - Toshkent, 2008. - 24 b.

